Yo‘lovchi tashishdan olingan daromadlar Guruh va boshqa aviakompaniyalar o‘rtasida tuzilgan interlayn kelishuvlar bo‘yicha daromatlarni o‘z ichiga oladi, ularga ko‘ra aviakompaniyalar o‘z blankalarida boshqa hamkor aviakompaniyalarning muntazam qatnovlariga tashishni rasmiylashtiradilar. Bunda aviakompaniya yo‘nalishning bir yoki bir nechta segmentlari boshqa tashuvchi tomonidan bajariladigan reyslarga chiptalarni rasmiylashtirishi mumkin. Interlayn-shartnoma bo‘yicha hamkor tomonidan ko‘rsatilgan, lekin Guruh blankalarida rasmiylashtirilgan tashishlar bo‘yicha daromad hamkor tomonidan aviatsiya transporti xizmatlari ko‘rsatilgan paytda tan olinadi, chunki Guruh foyda yoki zarar to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobotda va Guruhning boshqa jami daromadida tashishlardan olingan sof daromad (vositachilik haqqi) summasida agent sifatida ishtirok etadi.

Vositachilik haqqini olish huquqi Guruhda interlayn kelishuv bo‘yicha hamkor tomonidan reys amalga oshirilgan paytda yuzaga keladi, bu yakuniy xaridor oldidagi tashish majburiyatlarini bajarish vaqtiga to‘g‘ri keladi va kelishuv bo‘yicha hamkor bilan hisob-kitob qilish uchun asos bo‘ladi.

Agar yo‘lovchi bilan tashish shartnomasi aralash tashish shartlarida ikki yoki undan ortiq yo‘nalish segmentlarini (bajarish majburiyatlarini) o‘z ichiga olsa: Guruh reyslari va interlayn kelishuvi bo‘yicha hamkor reyslari, u holda Guruh reyslariga yo‘nalish segmentlarini sotishdan olingan tushum aviatsiya transporti xizmatlarini ko‘rsatish paytida to‘liq summada, boshqa aviakompaniyalarning reyslariga yo‘nalish segmentlarini sotishdan olingan tushum esa - foyda yoki zarar to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobotda va Guruhning boshqa umumiy daromadida tashishlardan olingan tushum tarkibidagi sof daromad summasida aks ettiriladi.

Yuk tashish: Havo transportida yuk tashish xizmatlarini ko‘rsatishdan olingan tushum havo transporti xizmatlari ko‘rsatilishiga qarab tashishdan olingan tushum tarkibida aks ettiriladi. Sotilgan, lekin hali ko‘rsatilmagan yuk aviatashuv xizmatlari qiymati xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar tarkibida moliyaviy holat to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobotda aks ettiriladi.

Charter tashuvlari: Charter aviatashuvlari (yo‘lovchi va yuk tashish) xizmatlarini ko‘rsatishdan tushgan tushum avitransport xizmatlari ko‘rsatilishiga qarab (charter reysini bajarish) tashishdan tushgan tushum tarkibida aks ettiriladi. Sotilgan, lekin hali ko‘rsatilmagan charter aviatashuv xizmatlari (yo‘lovchi va yuk tashish) qiymati moliyaviy holat to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobotda xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar tarkibida aks ettiriladi.

Boshqa daromadlar: Xizmatlar ko‘rsatishdan olingan boshqa daromadlar ushbu xizmatlar ko‘rsatilgan paytda tan olinadi.

Moliyalashtirish komponenti: Xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha va‘da qilingan tovarni yoki xizmatni xaridorga topshirish bilan xaridorning bunday tovar yoki xizmat uchun haq to‘lashi o‘rtasidagi muddat bir yildan oshmaydi. Shu munosabat bilan, Guruh moliyalashtirishning muhim tarkibiy qismining ta‘sirini hisobga olgan holda va‘da qilingan qoplash summasiga tuzatish kiritmaydi.

Guruh xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha muhim aktivlarga ega emas. Daromadga nisbatan shartsiz huquq yuzaga kelgan paytda, Guruh debitorlik qarzini tan oladi. Guruhning shartnoma majburiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: yo‘lovchilardan olinmagan transport tushumi, yo‘lovchilarni mukofotlash dasturi bo‘yicha majburiyatlar, shuningdek, xaridorlardan boshqa avanslar (23-izoh).

Yo‘lovchilarni mukofotlash dasturi

“Uzbekistan Airways” AJda tez-tez uchadigan yo‘lovchilarni rag‘batlantirish dasturi – “UzAirPlus” (keyingi o‘rinlarda – “Dastur” yoki “UzAirPlus” dasturi”) mavjud.

Bonus ballari bo‘yicha tushum Dastur ishtirokchisiga ballar evaziga olingan xizmatlarni ko‘rsatish paytida yoki bonus ballari yoqilgan paytda, qisqa muddatli kechiktirilgan daromad va boshqa qisqa muddatli majburiyatlarni bitta bonus ballining hisoblangan qiymatidan kelib chiqqan holda kamaytirgan holda tan olinadi.

3. Hisob siyosatining muhim qoidalari (davomi)

Kechiktirilgan daromad summasi bitim narxini bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlar (sotilgan aviachiptalar va bonus ballari) o‘rtasida ularni shartnoma tuzish paytidagi alohida sotishning nisbiy narxiga mutanosib ravishda taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Guruh reyslarida “UzAirPlus” dasturi ishtirokchilari tomonidan to‘plangan, ammo foydalanilmagan bonus ballarining hisoblangan qiymati moliyaviy holat to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobotda joriy majburiyatlar tarkibida yo‘lovchilarni mukofotlash dasturi bo‘yicha qisqa muddatli kechiktirilgan daromad sifatida aks ettiriladi.

Moliyaviy aktivlarning qadrsizlanishi: kutilayotgan kredit zararlari uchun mo‘ljallangan zaxira

Prognozlarga asoslanib, Guruh amortizatsiyalangan qiymat bo‘yicha baholanadigan moliyaviy aktivlar bilan bog‘liq kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini baholaydi. Guruh har bir hisobot sanasida kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini baholaydi va kredit yo‘qotishlari uchun baholash zaxirasini tan oladi. Kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini baholash quyidagilarni o‘z ichiga oladi: (i) mumkin bo‘lgan natijalar oralig‘ini baholash orqali aniqlangan xolis va ehtimollikka asoslangan summa, (ii) pulning vaqt qiymati va (iii) hisobot sanasida ortiqcha xarajat va kuch sarf qilmasdan mavjud bo‘lgan o‘tmishdagi hodisalar, hozirgi sharoitlar va kelajakdagi iqtisodiy vaziyatlar haqidagi barcha asosli va tasdiqlanadigan ma‘lumotlar.

Savdo va boshqa debitorlik qarzlari moliyaviy holat to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobotda kutilayotgan kredit zararlari uchun baholangan zaxira chegirib tashlangan holda aks ettiriladi.

Guruh kutilayotgan kredit zararlari baholashda 9-sonli MHXS (IFRS) da nazarda tutilgan soddalashtirilgan yondashuvni qo‘llaydi, bunda butun savdo debitorlik qarzlari bo‘yicha butun davr uchun kutilayotgan kredit zararlari uchun baholash zaxirasidan foydalaniladi.

Savdo debitorlik qarzlari kutilayotgan kredit zararlari baholash uchun kredit riskining umumiy xususiyatlari va to‘lov muddati kechiktirilgan kunlar soni asosida guruhlandi. Savdo debitorlik qarzlari bo‘yicha kredit zararlari uchun baholash zaxirasi zaxiralar matritsasiga muvofiq aniqlanadi.

9-son MHXS (IFRS) bo‘yicha kutilayotgan kredit zararlari modelini qo‘llash doirasiga kiradigan qolgan moliyaviy aktivlar uchun Guruh dastlabki tan olish paytidan boshlab kredit sifatidagi o‘zgarishlarga asoslangan qadrsizlanishni hisobga olishning “uch bosqichli” modelini qo‘llaydi. Dastlabki tan olishda qadrsizlanmagan moliyaviy instrument 1-bosqichga tegishli deb tasniflanadi. 1-bosqich moliyaviy aktivlari bo‘yicha kutilayotgan kredit yo‘qotishlari kelgusi 12 oy ichida yoki shartnomaga muvofiq so‘ndirish sanasigacha (agar u 12 oydan oldin yuz bersa) yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan defoltlar natijasida vujudga keladigan butun muddat uchun kutilayotgan kredit yo‘qotishlarining bir qismiga teng summada baholanadi (“12 oylik kutilayotgan kredit yo‘qotishlari”).

Agar Guruh dastlabki tan olish paytidan boshlab kredit riskining sezilarli darajada oshganligini aniqlasa, u holda aktiv 2-bosqichga o‘tkaziladi va ushbu aktiv bo‘yicha kutilayotgan kredit zararlari butun davr uchun kutilayotgan kredit zararlari asosida, ya‘ni shartnomaga muvofiq so‘ndirish sanasigacha, lekin kutilayotgan oldindan to‘lovni hisobga olgan holda, agar u nazarda tutilgan bo‘lsa (“butun davr uchun kutilayotgan kredit zararlari”), baholanadi. Agar Guruh moliyaviy aktivning qadrsizlanganligini aniqlasa, aktiv 3-bosqichga o‘tkaziladi va u bo‘yicha kutilayotgan kredit zararlari butun davr uchun kutilayotgan kredit zararlari sifatida baholanadi.

Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlariga nisbatan ham 9 MHXS (IFRS) ning qadrsizlanish bo‘yicha talablari qo‘llaniladi; aniqlangan qadrsizlanishdan ko‘rilgan zarar unchalik katta bo‘lmagan.

3. Hisob siyosatining muhim qoidalari (davomi)

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobotda operatsion xarajatlar taqdim etilishining o‘zgarishi

O‘tgan yillarda Guruh operatsion xarajatlarni foyda va zararlar va boshqa jami daromadlar to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobotda xarajatlarni funktsiya bo‘yicha tasniflagan holda taqdim etgan. 2024-yildan boshlab, Guruh operatsion xarajatlarni xususiyatiga ko‘ra tasniflash bo‘yicha taqdimotni o‘zgartirdi. Guruhning fikricha, bunday o‘zgarish ishonchli va mos ma’lumotlarni taqdim etadi, shuningdek, tarmoq tendensiyalariga muvofiq boshqa aviakompaniyalarning moliyaviy ko‘rsatkichlari bilan yaxshiroq taqqoslanishiga yordam beradi. MHXS (IAS) 8 “Hisob siyosati, buxgalteriya baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar”ga muvofiq, o‘zgartirish retrospektiv tarzda qo‘llaniladi va qiyosiy ma’lumotlarni taqdim etish tegishli ravishda o‘zgartirildi.

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobotda kechiktirilgan daromadlar ko‘rsatkichining o‘zgarishi

Guruh 2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra olingan homiylik mablag‘larini boshqa kreditorlik qarzlari tarkibida aks ettirgan. Guruh 2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra savdo va boshqa kreditorlik qarzlaridan 157 milliard UZS kechiktirilgan daromadlarga qayta tasniflagan.

Qiyosiy ma’lumotni qayta hisoblash

Guruh 2024-yil 31-dekabrda yakunlangan yil uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayonida yo‘lovchilarning foydalanilmagan chiptalari bilan bog‘liq hisob-kitoblarida xatolikni aniqladi. Guruh chiptalarni oldindan beriladigan tushum evaziga sotadi va transport xizmatlari ko‘rsatilishiga qarab daromadni tan oladi. Foydalanilmagan chiptalar ulardan foydalanish paytigacha yoki ularning amal qilish muddati tugagunga qadar shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar sifatida hisobga olinadi.

Qayta hisoblash konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga quyidagicha ta’sir ko‘rsatdi:

- Taqsimlanmagan foyda 2023-yil 1-yanvar holatiga 119 mlrd UZSdan oshdi (daromadning 140 mlrd UZSga oshishi va kechiktirilgan soliq samarasini 21 mlrd UZSga aks ettirish natijasida).
- 2023-yil 31-dekabrda yakunlangan yil uchun daromad 164 mlrd UZSga kamaytirildi.
- 2023-yil 31-dekabr holatiga shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar 23 mlrd UZSga oshirildi.
- 2023-yil uchun foyda solig‘i xarajatlari 25 mlrd UZSga kamaytirildi.

4. Muhim buxgalteriya mulohazalari, baholash qiymatlari va farazlar

Guruh konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan summalarga hamda kelgusi moliyaviy yilda aktivlar va majburiyatlarning balans qiymatiga ta’sir ko‘rsatadigan hisob-kitob baholari va farazlarni amalga oshiradi.

Hisoblangan baholar va mulohazalar doimiy ravishda tahlil qilinadi va rahbariyatning o‘tmishdagi tajribasiga va boshqa omillarga, shu jumladan kelajakdagi voqealarga nisbatan kutilmalarga asoslanadi, ular hozirgi vaziyatda asosli deb hisoblanadi. Hisob siyosatini qo‘llash jarayonida rahbariyat professional mulohazalardan ham foydalanadi, hisob-kitob baholari bilan bog‘liq mulohazalar bundan mustasno.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan summaga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadigan professional mulohazalar va kelgusi moliya yili davomida aktivlar va majburiyatlarning balans qiymatiga jiddiy tuzatishlar kiritish zaruratiga olib kelishi mumkin bo‘lgan hisob-kitob baholari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

4. Muhim buxgalteriya qarorlari, baholash ko‘rsatkichlari va taxminlar (davomi)

Asosiy vositalar obyektlarining foydali xizmat muddatlari va qoldiq qiymati

Asosiy vositalar obyektlarining foydali xizmat muddatlarini, shuningdek, ularning qoldiq qiymatini baholash shunga o‘xshash aktivlardan foydalanish tajribasiga asoslangan rahbariyatning professional mulohazasi predmeti hisoblanadi. Aktivlarning foydali xizmat muddatlari va qoldiq qiymatini aniqlashda rahbariyat quyidagi omillarni e‘tiborga oladi: kutilayotgan foydalanish xususiyati, texnologik eskirishni baholash va jismoniy eskirish. 3-izohda ko‘rsatilganidek, Guruh asosiy vositalarning qoldiq qiymatini 2024-yil davomida qayta ko‘rib chiqdi.

Aytib o‘tilgan har bir shart yoki bahoning o‘zgarishi kelgusida amortizatsiya xarajatlariga tuzatish kiritilishiga olib kelishi mumkin.

Pul mablag‘larini hosil qiluvchi birliklarni aniqlash

Guruh o‘z faoliyatida 1-izohda ko‘rsatilganidek, uzoq masofali, o‘rta masofali, shuningdek, mintaqaviy tashuvlar uchun yengil havo kemalarini ekspluatatsiya qiladi. Davlat mamlakat ichidagi yo‘nalishlarni, ular aviaqatnovlar bilan qoplanishi kerakligini hamda tashish narxlarini tartibga soladi. Guruh rahbariyati transport xizmatlarini ko‘rsatishdan maksimal foyda oladigan ravishda havo kemalari parkini boshqaradi. Shu maqsadda, rahbariyat turli yo‘nalishlarda ishlatiladigan havo kemalarini almashtiradi va ularni o‘zaro almashtirib bo‘ladi deb hisoblaydi. Shunday qilib, Guruh o‘zaro almashtirib bo‘ladigan havo kemalari pul oqimlarini hosil qiluvchi yagona birlikning bir qismi ekanligini aniqladi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining (keyingi o‘rinlarda “O‘zR Iqtisodiyot va moliya vazirligi” deb ataladi) debitorlik qarzi

Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faqat davlat ehtiyojlari uchun foydalaniladigan HK xarid qilish va qayta jihozlash uchun olingan kreditlar va qarzlar, shuningdek ular bo‘yicha tegishli foizlarni to‘lash uchun Guruhga pul mablag‘larini taqdim etishi shart. Ushbu pul mablag‘lari odatda kredit va qarzlarining navbatdagi to‘lovi oldidan beriladi.

Guruh O‘zR Iqtisodiyot va moliya vazirligidan kelgusida olinishi kutilayotgan summalarning joriy qiymati bo‘yicha debitorlik qarzini tan oldi. Ushbu debitorlik qarzi keyinchalik amortizatsiyalangan qiymat bo‘yicha hisobga olinadi. Debitorlik qarzi shartnomaviy xarakterga ega bo‘lmaganligi sababli, Guruh uni 9-sonli MHXS (IFRS) ga o‘xshash tarzda hisobga oladi.

HK davriy ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish uchun rezervlar

Kutilayotgan xarajatlar miqdori va HK davriy ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishning kutilayotgan muddatlari rahbariyatning professional mulohazasi predmeti hisoblanadi.

“Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” nomli 37-son BHXSga (IAS) muvofiq muqarrar majburiyat bo‘yicha majburiyatni qachon tan olish kerakligini aniqlashda, Guruh rezervlarga asoslangan yondashuvni qo‘llaydi, chunki uni eng maqbul deb hisoblaydi va HKdan foydalanilganda rezervlarni yaratadi.

Kutilayotgan xarajatlarni baholash bunday baholashni o‘tkazish paytidagi eng ishonchli ma‘lumotlar asosida amalga oshiriladi. Bunda ijara shartnomalarining shartlari, HK va aviatsiya dvigatellarining yoshi va holati, almashtirilishi kerak bo‘lgan mahkamlagichlar, uzellar va agregatlarning bozor qiymati, shuningdek talab qilinadigan ishlarning qiymati hisobga olinadi.

4. Muhim buxgalteriya qarorlari, baholash ko‘rsatkichlari va taxminlar (davomi)

Aksiyadorga boshqa taqsimotlar

Davlat xayriya jamoat fondiga to‘lovlar. 2024-yilda Guruh davlat tomonidan ta‘sis etilgan xayriya jamoat fondiga 638 milliard UZS miqdorida to‘lovlar amalga oshirdi. Operatsiyalarning xususiyatidan kelib chiqib, to‘lovlar foyda va zararlarda xarajat sifatida tan olish mezonlariga javob bermaydi, degan qarorga kelindi. Shunga ko‘ra, mazkur to‘lovlar 95 mlrd. UZS taqsimlanmagan foydaning kamayishi sifatida bevosita Guruh kapitali tarkibida aks ettirildi. Guruh rahbariyatining fikricha, bu turdagi hisobga olish yondashuvi operatsiyaning iqtisodiy mohiyatini aks ettiradi. Ya‘ni, bu Kompaniyaning taqsimlanmagan foydasini taqsimlash bo‘lib, aslida Guruhning yakuniy nazorat qiluvchi tomonidan ma‘qullangan, odatdagi faoliyat davomida sarflangan xarajat emas (2023-yilda davlat xayriya jamoat fondiga to‘lovlar amalga oshirilmagan).

Olingan homiylik mablag‘lari hisobi

Guruh Toshkent xalqaro aeroportida HK uchun angarlar qurish uchun homiylik mablag‘larini oldi. Guruh ushbu angarlardan HKni ta‘mirlash, shuningdek, uchinchi tomonlarga qisqa muddatli ijaraga berish uchun foydalanishni rejalashtirmoqda. Qurilishni yakunlash rejasi - 2025-yil 3-chorak. Olingan mablag‘lardan ko‘zlangan maqsad mavjudligi sababli, Guruh moliyaviy holat to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobotda kechiktirilgan daromadlar sifatida tan oldi. Guruh olingan homiylik mablag‘laridan olingan daromatlarni ushbu angarlardan foydalanish jarayonida tan olishni rejalashtirmoqda.

Foydalanilmagan aviachiptalardan olingan daromadni tan olish

Yo‘lovchi tashish shartnomasi yo‘lovchining aviachiptani sotib olgandan so‘ng bir yil mobaynida undan foydalanishini ko‘zda tutadi. Bundan tashqari, yo‘lovchi amaldagi tarifga muvofiq zarur to‘lovni amalga oshirgan holda parvoz sanasini cheksiz marta o‘zgartirish imkoniyatiga ega. O‘tgan yillardagi tarixiy ma‘lumotlarga asoslanib, Guruh aviachiptalar sotilgan paytda ishlatilmaydigan yoki qaytarilmaydigan chiptalar foiziga nisbatan yo‘lovchi tashishdan olingan daromatlarni tan oladi.

5. Yangi yoki qayta ko‘rib chiqilgan standartlar va tushuntirishlarni qo‘llash

Quyidagi bir qator standartlar va tuzatishlar 2024-yil 1-yanvardan boshlanadigan yillik davrlar uchun kuchga kirdi, ammo Guruhga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmadi:

16-son MHXS (IFRS) “Ijara”: Qayta ijaraga berish sharti bilan sotishdagi ijara majburiyatlari (2022-yil 22-sentyabrda chiqarilgan, 2024-yil 1-yanvardan yoki undan kechroq boshlanadigan yillik davrlar uchun kuchga kirgan). Tuzatishlar 15 MHXS (IFRS) talablariga muvofiq sotish sifatida hisobga olinadigan qayta ijaraga berish bilan sotish operatsiyalariga taalluqlidir. Shuningdek, ular buxgalteriya hisobining bir xilligini ta‘minlash va haqiqiy bo‘lmagan foydani tan olmaslik uchun indeks yoki stavkaga bog‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchan ijara to‘lovlarini majburiyatning dastlabki bahosiga kiritishni talab qiladi.

Majburiyatlarni qisqa muddatli yoki uzoq muddatli deb tasniflash – BHXS (IAS) 1 ga o‘zgartirishlar (dastlab 2020-yil 23-yanvarda chiqarilgan va keyinchalik 2020-yil 15-iyul va 2022-yil 31-oktyabrda to‘ldirilgan; yakuniy kuchga kirish sanasi – 2024-yil 1-yanvardan yoki undan kechroq boshlanadigan yillik davrlar uchun). Tuzatishlarga ko‘ra, majburiyatlarni qisqa muddatli yoki uzoq muddatli deb tasniflash hisobot davri oxirida mavjud bo‘lgan huquqlar asosida amalga oshiriladi.

BHXS (IAS) 7 “Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot” va MHXS (IFRS) 7 “Moliyaviy instrumentlar: ma‘lumotlarni yoritib berish” ga tuzatishlar: Yetkazib beruvchilarni moliyalashtirish (2023-yil 25-mayda e‘lon qilingan). Moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining yetkazib beruvchilarni moliyalashtirish bo‘yicha kelishuvlar haqidagi ma‘lumotlarning yetarli emasligi yoki chalg‘ituvchi tarzda yoritib berilishi to‘g‘risidagi tashvishlariga javoban, 2023-yil may oyida MHXS bo‘yicha Kengash (IASB) BHXS (IAS) 7 va MHXS (IFRS) 7 ga o‘zgartirishlar kiritdi. Bu o‘zgartirishlar kompaniyalarga bunday kelishuvlar (Supplier Finance Arrangements, SFA) haqidagi ma‘lumotlarni yoritib berish majburiyatini yuklaydi.

6. Yangi standartlar va talqinlar

2025-yil 1-yanvardan yoki undan keyin boshlanadigan yillik davrlar uchun majburiy bo‘lgan va Guruh tomonidan muddatidan oldin qabul qilinmagan bir qator yangi standartlar va talqinlar e‘lon qilindi.

- **21-sonli BHXSga (IAS) tuzatishlar – Almashinuvchanlikning yo‘qligi (E‘lon qilingan sana: 2023-yil 15-avgust, 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)** Valyutaning ayirboshlanuvchanligini baholash va u mavjud bo‘lmaganda tegishli ayirboshlash kursini belgilash bo‘yicha qo‘llanma belgilaydi.
- **MHXS (IFRS) 9 va MHXS (IFRS) 7** – Moliyaviy instrumentlarni klassifikatsiyalash va baholash bo‘yicha tuzatishlar (E‘lon qilingan sana: 2024-yil 30-may, kuchga kiradi sana: 2026-yil 1-yanvar) shartnomaviy pul oqimlarining xususiyatlari, moliyaviy aktivlarni tan olishni to‘xtatish va ular bo‘yicha ma‘lumotlarni oshkor qilish bo‘yicha talablarni aniqlashtiradi.
- **MHXS (IFRS) 18 – Moliyaviy hisobotda ma‘lumotlarni taqdim etish va yoritib berish (2024-yil 9-aprelda e‘lon qilingan, 2027-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)** BHXS (IAS) 1 o‘rniga moliyaviy hisobotda ma‘lumotlarni taqdim etish va ochib berishga qo‘yiladigan talablarni yaxshilaydigan yangi standartni joriy etadi.
- **19-son MHXS (IFRS) – Ommaviy hisobot bermaydigan sho‘ba korxonalar: ma‘lumotlarni oshkor qilish (2024-yil 9-mayda e‘lon qilingan, 2027-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)** Ommaviy hisobotga ega bo‘lmagan, ammo MHXSni qo‘llaydigan sho‘ba korxonalar uchun ma‘lumotlarni oshkor qilishning soddalashtirilgan talablarini belgilaydi.

Agar yuqorida boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, yangi standartlar va talqinlar guruhning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmasligi kutilmoqda. Guruh ushbu izohda Guruhga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydigan yoki Guruhning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmaydigan boshqa yangi buxgalteriya qoidalarini taqdim etmagan.

7. Bog‘liq tomonlar bilan hisob-kitoblar va operatsiyalar

Tomonlar, odatda, agar ular umumiy nazorat ostida bo‘lsa yoki tomonlardan biri boshqa tomonni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lsa yoki moliya-xo‘jalik faoliyati masalalari bo‘yicha u tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi yoki uni birgalikda nazorat qilishi mumkin bo‘lsa, o‘zaro bog‘liq deb hisoblanadi. Ehtimoliy bog‘liq tomonlarning har biri bilan o‘zaro munosabatlarni ko‘rib chiqishda ularning yuridik shakli emas, balki bunday o‘zaro munosabatlarning iqtisodiy mazmuni e‘tiborga olinadi.

Bosh korxona va guruhning yakuniy nazorat qiluvchi tomoni

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi Kompaniyaning 100% aksiyadori hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati Guruhning yakuniy nazorat qiluvchi shaxsi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan bog‘liq tashkilotlar bilan operatsiyalar

Guruh O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining nazorati ostida, birgalikda nazorati ostida yoki sezilarli ta‘siri ostida bo‘lgan bir qator korxonalar bilan operatsiyalarni amalga oshiradi. Guruh 24-sonli BHXS (IAS) "Bog‘liq tomonlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yoritib berish" tomonidan taqdim etilgan, hukumatga aloqador korxonalar bilan operatsiyalar bo‘yicha soddalashtirilgan ma‘lumotlarni yoritib berish imkonini beruvchi imtiyozni qo‘llaydi. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan bog‘liq boshqa korxonalar bilan 2024-yil uchun alohida emas, balki birgalikda sezilarli bo‘lgan operatsiyalar 324 mlrd. UZS (2023-yil uchun: 295 mlrd. UZS) va asosan soliqlar va yig‘imlar, bank va kommunal xizmatlar bilan ifodalanadi. Shuningdek, guruh umumiy nazorat ostidagi kompaniyalardan asosan yoqilg‘i, shuningdek, yer usti xizmatlarini xarid qiladi. Bundan tashqari, bunday operatsiyalarning turlaridan biri aviatsiya yoqilg‘isi uchun tovar qarzlarini hisoblanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan bitimlar doirasida Guruh zaruratga qarab davlat tashkilotidan qarz shartlari asosida aviayoqilg‘i oladi va keyinchalik o‘zining asosiy yetkazib beruvchilaridan tegishli yetkazib berishlarni olgandan so‘ng xuddi shu hajm va sifatidagi aviayoqilg‘ini qaytaradi. Ko‘rsatilgan bitimlar pul hisob-kitoblarisiz amalga oshiriladi va tomonlarning xo‘jalik ehtiyojlarini aks ettiradi.

“UZBEKISTAN AIRWAYS” AJ VA UNING SHO‘BA KORXONALARI
2024-yil 31-dekabr - konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga izohlar

7. Bog‘liq tomonlar bilan hisob-kitoblar va operatsiyalar (davomi)

<i>milliard UZSda</i>	31-dekabrda yakunlangan yil uchun bitim summasi		31-dekabrda hisob-kitoblar qoldig‘i	
	2024 y.	2023 y.	2024 y.	2023 y.
Tovarlar va xizmatlarni sotish:				
Umumiy nazoratdagi kompaniyalar	72	72	188	179
Tovar va xizmatlarni xarid qilish:				
Umumiy nazoratdagi kompaniyalar	(2,477)	(2,443)	(356)	(289)
O‘z.R. Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan operatsiyalar:				
O‘zR Iqtisodiyot va moliya vazirligining debitorlik qarzi	200	474	1,843	1,986
O‘zR Iqtisodiyot va moliya vazirligining kreditorlik qarzi	-	-	(265)	(126)
Kreditlar va qarzlar:				
Umumiy nazorat ostidagi kompaniyalar - to‘langan/to‘lanadigan asosiy qarz,	(308)	(951)	(2,241)	(2,460)
Umumiy nazorat ostidagi kompaniyalar - to‘langan/to‘lanadigan foizlar	(291)	(122)	(46)	(184)
Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari:				
Umumiy nazoratdagi kompaniyalar	-	-	106	82
Qisqa muddatli berilgan depozitlar:				
Umumiy nazoratdagi kompaniyalar	787	(1,234)	447	1,234

Aksiyadorlarga boshqa taqsimotlar 16-izohda yoritib berilgan.

Asosiy boshqaruv xodimlarini mukofotlash

Guruhning asosiy boshqaruv xodimlari (Boshqaruv va Kuzatuv kengashi a‘zolari) ish haqi, haq to‘lanadigan mehnat ta‘tili va kasallik ta‘tili, mukofotlar hamda boshqa to‘lovlar, kundalik xarajatlarni o‘z ichiga olgan qisqa muddatli mukofotlar oladi. Guruh O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining farmoyishiga muvofiq 2024-yil avgust oyidan boshlab, mustaqil a‘zolar bundan mustasno, Kuzatuv kengashi a‘zolariga mukofot to‘lashni to‘xtatdi. 2024-yilda Guruhning asosiy boshqaruv xodimlariga hisoblangan umumiy mablag‘lar miqdori 13 milliard UZS tashkil etdi (2023-yilda: 11 milliard UZS).

“UZBEKISTAN AIRWAYS” AJ VA UNING SHO‘BA KORXONALARI
2024-yil 31-dekabr - konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga izohlar

8. Asosiy vositalar

	HK, jumladan, planerlar va dvigatellar	Bino va inshootlar	Mashina va uskunalar	Transport	Boshqa asosiy vositalar	Tugallanmag an qurilish	Jami
<i>milliard UZSda</i>							
2023-yil 1-yanvardagi boshlang‘ich narxi	7,818	93	148	16	55	104	8,234
2023-yil 1-yanvar holatiga jamg‘arilgan eskirish	(2,364)	(50)	(84)	(11)	(39)	-	(2,548)
2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra balans qiymati	5,454	43	64	5	16	104	5,686
Xaridlar	643	37	9	11	15	556	1,271
“Silk Avia” MCHJni sotib olish	551	-	-	-	-	-	551
Chiqimlar	(18)	-	-	-	-	-	(18)
Eskirish	(360)	(26)	(14)	(3)	(4)	-	(407)
2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra balans qiymati	6,270	54	59	13	27	660	7,083
2023-yil 31-dekabr holatiga boshlang‘ich narxi	8,976	130	156	27	70	660	10,019
2023-yil 31-dekabr holatiga jamg‘arilgan eskirish	(2,706)	(76)	(97)	(14)	(43)	-	(2,936)
2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra balans qiymati	6,270	54	59	13	27	660	7,083
Xaridlar	388	2	18	12	13	1,865	2,298
Jalb qilingan kreditlar va qarzlar bo‘yicha kapitallashtirilgan xarajatlar	-	-	-	-	-	67	67
Bir turkumdan boshqasiga o‘tkazish	180	5	-	-	8	(193)	-
Aksiyadorga taqsimlash uchun aktivlarga o‘tkazish	-	-	-	-	-	(24)	(24)
Chiqimlar	(18)	-	-	-	-	(7)	(25)
Eskirish	(469)	(3)	(8)	(3)	(10)	-	(493)
2024-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra balans qiymati	6,351	58	69	22	38	2,368	8,906
Boshlang‘ich narxi: 2024-yil 31-dekabr	9,396	137	172	37	100	2,368	12,210
2024-yil 31-dekabr holatiga jamg‘arilgan eskirish	(3,045)	(79)	(103)	(15)	(62)	-	(3,304)
2024-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra balans qiymati	6,351	58	69	22	38	2,368	8,906

2024-yil noyabr oyida 94 mlrd. UZS bitta Let L-410 rusumli havo kemasi sotib olinib, foydalanishga topshirildi. Shuningdek, hisobot yili davomida umumiy qiymati 180 mlrd. UZS bitta Boeing 767 aviatsiya dvigateli ta’irlanib, ishga tushirildi. Bundan tashqari, 2024-yil may oyida Guruh Boeing 767 rusumli havo kemalari uchun 207 mlrd. UZSlik ikkita aviatsiya dvigatelinini xarid qildi.

2024-yil davomida uchinchi tomonlarga ikkita Boeing 757-23P rusumli havo kemasi, oltita IL-76 rusumli havo kemasining barchasi, to’rtta MI-8 rusumli vertolyot, shuningdek, ilgari foydalanilgan 117 ta zaxira aviatsiya dvigatellari sotildi. Ushbu aktivlarning sotilishidan olingan daromad 326 mlrd. UZSni tashkil etdi va boshqa operatsion daromadlar tarkibida aks ettirildi.

2024-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra tugallanmagan qurilish tarkibiga quyidagilar kiritilgan: havo kemalari sotib olish uchun 643 mlrd. UZS miqdoridagi avans to’lovlari (2023-yil 31-dekabr holatiga: 444 mlrd. UZS); Toshkent-Sharqiy aeroportidagi qurilish ishlari va avans to’lovlari uchun 815 mlrd. UZS; havo kemalari uchun ikkita angar qurish xarajatlari 323 mlrd. UZS, shuningdek, boshqa rekonstruksiya ishlari. Bundan tashqari, 2024-yil davomida A321NEO havo kemalari uchun zaxira aviatsiya dvigatellarini sotib olish maqsadida 143 milliard UZS miqdorida avans to’lovlari amalga oshirildi.

Boeing 787 rusumidagi uchta va ATR 72-600 rusumidagi uchta havo kemasi garovda turibdi. Ularning qoldiq qiymati 2024-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra 3,377 mlrd. UZS tashkil etdi (2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra: 3,571 mlrd. UZS).

9. Foydalanish huquqidagi aktivlar

<i>milliard UZSda</i>	A320, A321 HK markasi	ATR72-212A HK markasi	Jami
2023-yil 1-yanvar holatiga qoldiq	2,966	-	2,966
Kirim	2,006	-	2,006
Eskirish xarajatlari	(326)	-	(326)
2023-yil 31-dekabr holatiga qoldiq	4,646	-	4,646
Kirim	717	500	1,217
Eskirish xarajatlari	(490)	(36)	(526)
2024-yil 31-dekabr holatiga qoldiq	4,873	464	5,337

2024-yil davomida Guruh yana Airbus A320-NEO rusumidagi 2 ta va ATR72-600 rusumidagi 2 ta havo kemasini ijaraga olib, foydalanishga topshirdi (2023-yilda: Airbus A320-NEO rusumidagi 5 ta havo kemasi).

Guruhning ijara majburiyatlari ijaraga beruvchining ijaraga olingan aktivlarga nisbatan huquqi bilan kafolatlangan.

10. O‘zR Iqtisodiyot va moliya vazirligining debitorlik qarzi

<i>milliard UZSda</i>	2024-yil 31 dekabr	2023-yil 31 dekabr
Uzoq muddatli qism	1,423	1,667
Qisqa muddatli qism	420	319
Jami	1,843	1,986

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga ko‘ra, Guruh faqat davlat ehtiyojlari uchun foydalaniladigan havo kemalarini (HK) sotib olish va ularni qayta jihozlash uchun olingan kreditlar va qarzlarni, shuningdek ular bo‘yicha tegishli foizlarni to‘lash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligidan pul mablag‘larini olishga qonuniy huquqqa ega. Guruh ushbu HKlarni nazorat qila olmaganligi sababli, ularni aktivlar sifatida tan olmaydi. MHXS (IFRS) 9 “Moliyaviy instrumentlar”ga muvofiq moliyaviy aktivlar dastlab haqqoniy qiymatda tan olinishi lozim. Debitorlik qarzining bir qismi dastlabki tan olish paytida uzoq muddatli va foizsiz bo‘lganligi sababli, bunday debitorlik qarzining balans qiymati kelishilgan qoplash jadvaliga muvofiq kelgusi pul oqimlarini diskontlash orqali yillik 3.7% dan 6.8% gacha bo‘lgan stavkalarda tan olingan. 2024-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra debitorlik qarzlarining barcha summasi 1-bosqichga tegishli (2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra ham 1-bosqich edi).

Davlat loyihasi bo‘yicha hisob-kitob

Hisobot yili davomida Guruh O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi nomidan “Toshkent-Sharqiy” aeroportida 1-terminal qurilishi davlat loyihasi bo‘yicha jami 140 milliard UZSlik to‘lovlarni amalga oshirdi. Yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ko‘rsatilgan summani 50 mlrd UZS miqdorida qisman qoplab bergan. Kompaniya O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligidan qarzning qolgan qismini 2025-yil davomida olishni kutmoqda.

11. Boshqa aylanmadan tashqari aktivlar

<i>milliard UZSda</i>	2024-yil 31 dekabr	2023-yil 31 dekabr
Ijaraga olingan HKga texnik xizmat ko‘rsatish rezerviga to‘lovlar	714	434
HK ijarasi bo‘yicha sug‘urta depoziti	158	94
Uzoq muddatli bank depozitlari	-	132
Boshqalar	49	85
Jami	921	745

Ijaraga olingan HKga texnik xizmat ko‘rsatish rezerviga to‘lovlar ijaraga oluvchi tomonidan ijaraga olingan HKga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash sifatida ijaraga beruvchiga o‘tkaziladi. To‘lovlar har oyda qat‘iy belgilangan summani, shuningdek, uchish soatlariga bog‘liq bo‘lgan summani o‘z ichiga oladi. HKga texnik xizmat ko‘rsatish rezerviga to‘lovlar, agar texnik xizmat ko‘rsatish haqiqatda Guruh tomonidan amalga oshirilsa, qoplanishi kerak.

HK ijarasi bo‘yicha sug‘urta depoziti ijaraga beruvchiga ijaraga oluvchining o‘z majburiyatlarini to‘liq, o‘z vaqtida va vijdonan bajarilishini ta‘minlash sifatida beriladi. Sug‘urta depoziti ijaraga beruvchiga bir yoki bir necha summada o‘tkaziladi. Kafolatli depozit miqdori shartnoma shartlariga qarab bir oydan uch oygacha bo‘lgan ijara to‘lovlarini tashkil etadi. Shuningdek, sug‘urta depoziti ijarachi tomonidan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda ijara to‘lovining oxirgi to‘lovi yoki har qanday to‘lov hisobiga kiritilishi mumkin. Sug‘urta depoziti ijara shartnomasi to‘xtatilishi yoki bekor qilinishi yoxud ijara shartnomasi to‘xtatilgan sanadan keyin va ijaraga oluvchi o‘z majburiyatlarini bajarganidan so‘ng darhol HK qaytarilishi munosabati bilan qaytariladi.

2024-yil 31-dekabr va 2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, ijaraga olingan havo kemalari (HK) uchun texnik xizmat ko‘rsatish rezervi va HK ijarasi bo‘yicha sug‘urta depozitlariga to‘lovlarning barcha summolari A1 va Aaa (Moody’s) kredit reytingiga ega bo‘lgan ijaraga beruvchilarga joylashtirilgan bo‘lib, ular 1-bosqichga tegishlidir.

12. Zaxiralar

<i>milliard UZSda</i>	2024-yil 31 dekabr	2023-yil 31 dekabr
Ehtiyot qismlar va boshqa materiallar	418	325
Yoqilg‘i	193	141
Tugallanmagan ishlab chiqarish	6	4
Jami zaxiralar	617	470

2024-yilda hisobdan chiqarilgan ehtiyot qismlar va boshqa materiallar qiymati 531 mlrd UZS (2023-yilda: 352 mlrd UZS) miqdoridagi HKga texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari tarkibiga kiritilgan.

13. Savdo va boshqa debitorlik qarzlari

<i>milliard UZSda</i>	2024-yil 31 dekabr	2023-yil 31 dekabr
Uchinchi shaxslarning savdo debitorlik qarzi	274	186
Bog‘liq tomonlarning savdo debitorlik qarzi	188	179
Boshqa debitorlik qarzlari	168	172
Kutilayotgan kredit zararlari uchun zaxira chegirib tashlangan holda	(86)	(9)
Savdo va boshqa tarkibdagi jami moliyaviy aktivlar debitorlik qarzi	544	528
Boshqa operatsiyalar bo‘yicha xodimlarning qarzi	25	25
Jami savdo va boshqa debitorlik qarzlari	569	553

Guruhning kredit va valyuta xatarlariga ta‘sirchanligi hamda savdo va boshqa debitorlik qarzlarning qadrsizlanishidan ko‘rilgan zararlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar 27-izohda keltirilgan.

14. Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari

<i>milliard UZSda</i>	2024-yil 31 dekabr	2023-yil 31 dekabr
Qisqa muddatli bank depozitlari	447	-
Kassadagi va chet el valyutasidagi joriy hisobvaraqlardagi pul mablag‘lari	228	227
Kassadagi va joriy hisobvaraqlardagi so‘mdagi pul mablag‘lari	145	93
Jami pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	820	320

2024-yil 31-dekabr va 2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, Guruh mablag‘larining 28% va 26%, mos ravishda, davlat nazorati ostidagi va Ba3 (Moody’s) kredit reytingiga ega bo‘lgan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJga (keyingi o‘rinlarda – “O‘zmilliybank” AJ) joylashtirildi. Bank hisobvaraqlaridagi qoldiqlar muddati o‘tgan ham, qadrsizlangan ham emas va 1-bosqichga tegishli.

15. Boshqa aktivlar

<i>milliard UZSda</i>	2024-yil 31 dekabr	2023-yil 31 dekabr
Tovar/xizmatlarni yetkazib beruvchilarga berilgan bo‘naklar	534	554
Soliqlar bo‘yicha oldindan to‘lovlar	179	146
Qisqa muddatli bank depozitlari	158	1,254
Boshqalar	75	27
Jami	946	1,981

Soliqlar bo‘yicha oldindan to‘lovlar asosan QQS bo‘yicha oldindan to‘lovni o‘z ichiga oladi.

16. Aksiyadorlik kapitali

Aksiyadorlik kapitali

“Uzbekistan Airways” AJning aksiyadorlik kapitali 2024-yil 31-dekabr va 2023-yil holatiga ko‘ra 4 263 mlrd. UZS va har birining nominal qiymati 100 (yuz) UZS bo‘lgan 42,632,403,418 dona oddiy aksiyalarga bo‘lingan.

2024-yil 31-dekabr va 2023-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi Kompaniyaning yagona aksiyadori hisoblanadi.

Dividendlar

Oddiy aksiyalarning egalari vaqti-vaqti bilan e‘lon qilinadigan dividendlarni olish huquqiga ega, shuningdek, “bitta aksiya - bitta ovoz” qoidasidan kelib chiqqan holda Jamiyat yig‘ilishlarida ovoz berish huquqiga ega.

Jamiyatning barcha oddiy aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli bo‘lganligi sababli, dividendlarni to‘lash bo‘yicha qarorlar aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi. 2024-yil iyul oyida Kompaniya aksiyadori 205 mlrd. UZS miqdorida dividend taqsimlash to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu 43 mlrd. aksiyaning har biriga 4.77 UZS dan to‘g‘ri keladi (2023-yilda: 147 mlrd. UZS, 43 mlrd. aksiyaning har biriga 3.42 UZS dan). 111 mlrd. UZS miqdoridagi dividendlar foyda solig‘i bo‘yicha avans to‘lovini kamaytirish orqali to‘landi. Bundan tashqari, Kompaniya aksiyadorning talabiga ko‘ra sho‘ba tashkilotlarning foydasi hisobidan aksiyadorga 18 mlrd. UZS miqdorida dividendlar ham to‘ladi. To‘lov 43 mlrd aksiyaning har biriga 0.42 UZS ni tashkil etadi.

Aksiyadorga taqsimlash uchun aktivlar va majburiyatlarni tan olish

2023-2024-yillarda Guruh davlat ko‘rsatmasiga muvofiq “Zomin” aeroportini umumiy qiymati 140 mlrd. UZS ga rekonstruksiya ishlari o‘tkazdi. Davlat organlarining qaroriga ko‘ra, ushbu aktivlar boshqa davlat kompaniyasiga o‘tkazilishi lozim. Rekonstruksiya ishlari Kompaniya aksiyadorlik kapitalida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining ulushini kamaytirish hisobiga moliyalashtirildi. Shu munosabat bilan, Guruh 2024-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra aksiyadorga taqsimlash uchun 140 mlrd. UZS aktivlarni tan oldi. Shuningdek, xuddi shu sanada Guruh aksiyador oldidagi majburiyatni kapitaldagi taqsimlanmagan foyda bilan bog‘liq holda tan oldi.

17. Kreditlar va qarzlar

	Xitoy davlat taraqqiyot banki	O‘zR Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	“Milliy bank” AJ	Islom taraqqiyot banki	Jami
<i>milliard UZSda</i>					
2024-yil 31-dekabr					
- Uzoq muddatli qism	3,203	1,565	224	-	4,992
- Qisqa muddatli qism	950	129	369	199	1,647
Jami kreditlar va qarzlar					
2024-yil 31-dekabr	4,153	1,694	593	199	6,639
2023-yil 31-dekabr					
- Uzoq muddatli qism	3,909	1,594	456	190	6,149
- Qisqa muddatli qism	909	253	341	-	1,503
Jami kreditlar va qarzlar					
2023-yil 31-dekabr	4,818	1,847	797	190	7,652

Guruh kredit shartnomalari bo‘yicha bir qator moliyaviy va nomoliyaviy kovenantlarga ega. 2024-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, Guruh tomonidan kredit bitimlarida nazarda tutilgan barcha shartlar va cheklovlarga rioya qilingan (2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra: kredit kovenantlarida barcha shartlarga rioya qilingan).

Xitoy davlat taraqqiyot banki

2012-2021-yillar davomida Guruh “O‘zmilliybank” AJ orqali A-320-200 va Boeing 787 rusumli havo kemalarini sotib olish maqsadida 537.4 million AQSH dollari (4,223 milliard UZS) miqdorida kreditlar oldi. Kreditlar yillik LIBOR 6 oy+3% / 3.1% (MB marjasi 0.5% ni o‘z ichiga olgan holda) va LIBOR 6 oy+2.6% (MB marjasi 0.1% ni o‘z ichiga olgan holda) stavkalari bilan berildi, yillik, bunda qarz mablag‘larining bir qismi faqat davlat ehtiyojlariga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan havo kemalarini sotib olishga yo‘naltirildi. 2024-yil 31-dekabr va 2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, kreditlarning qoldiq qiymati mos ravishda 4,153 mlrd. UZS va 4,818 mlrd. UZS so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, davlat ehtiyojlariga xizmat ko‘rsatish uchun kreditlar bo‘yicha – tegishli ravishda 968 mlrd. UZS va 1,133 mlrd. UZS. Kredit mablag‘lari 3 yillik imtiyozli davr bilan 10 yil muddatga berilgan.

Kreditlar O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolati bilan ta‘minlangan. 2023-yil dekabr oyida kreditor tomonidan kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari o‘zgartirildi va 5.1% dan 6.15% gacha bo‘lgan qat‘iy miqdorda belgilandi. Kreditlar 2030-yilgacha to‘lanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va Taraqqiyot Jamg‘armasi

2019-yilda Guruh 334 million AQSH dollari miqdorida qarz oldi. AQSH (2,477 mlrd. UZS) va 45 mln yevro (452.7 mlrd. UZS) “O‘zmilliybank” AJ orqali A320, Boeing 787 rusumli HK, zaxira dvigatelini sotib olish maqsadida, bir qismi yillik LIBOR 6m+2.5% stavkalari bilan (Milliy bank marjasi 0.5% ni o‘z ichiga olgan holda), boshqa qismi esa foizsiz hisoblanadi.

2024-yil 31-dekabr va 2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, LIBOR 6 oylik + 2.5% yillik stavkasi (shu jumladan, Markaziy bankning 0,5% marjasi) bo‘lgan qarzlarining qoldiq qiymati mos ravishda 909 mlrd. UZS va 994 mlrd. UZSni tashkil etadi. Ushbu qarzlar 3 yillik imtiyozli davr bilan 10 yilga berilgan edi. 2021-yil davomida imtiyozli davr 2024-yilgacha uzaytirildi. 2021-yil davomida imtiyozli davr 2024-yilgacha uzaytirildi. Qarzlar 2028-yilgacha to‘lanishi lozim.

2017-2018-yillarda faqat davlat ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan havo kemalarini sotib olish uchun AQSH dollari va yevroda foizsiz qarzlar olindi. 2024-yil 31-dekabr va 2023-yil holatiga ko‘ra, bunday kreditlarning qoldiq qiymati mos ravishda 785 mlrd. UZS va 853 mlrd. UZS ni tashkil etdi. Qarz mablag‘lari 15 yil muddatga berilgan bo‘lib, 2032-2033 yillarda qaytariladi va 3 yillik imtiyozli davrga ega.

MHXS (IFRS) 9 ga muvofiq moliyaviy majburiyatlar dastlab haqqoniy qiymatda tan olinishi lozim. Maxsus maqsadli HK sotib olish uchun olingan qarzlar bo‘yicha foiz stavkasi bozor stavkasini ifodalaganligi sababli, bunday qarzlarining balans qiymati kelishilgan qoplash jadvaliga muvofiq kelgusi pul oqimlarini diskontlash orqali yillik 3.7% va 6.8% stavkalarda hisoblab chiqilgan.

17. Kreditlar va qarzlar (davomi)

“O‘zmilliybank” AJ

2014-2019-yillar davomida Guruh 121 mln. AQSH dollari (326 mlrd. UZS) “O‘zmilliybank” AJdan Boeing 787 rusumli HKni yillik 4.5% stavkasi bilan sotib olish maqsadida kredit oldi. 2019-yil dekabr oyida kreditlar bo‘yicha valyuta qarzdorligi qoldig‘ini UZS ga o‘tkazish bo‘yicha, bu 822 mlrd. UZS, shuningdek, foiz stavkasini 16% ga qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida qo‘shimcha bitimlar imzolandi. 2020 yil aprel oyida foiz stavkalarini 10% gacha pasaytirish bo‘yicha qo‘shimcha kelishuvlar imzolandi. Kredit mablag‘lari 2025-2026 yillarda so‘ndiriladi. Kreditlar O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolati bilan ta‘minlangan.

2023-yil davomida qarzni o‘tkazish to‘g‘risidagi bitimga muvofiq, “ATR72-600” rusumli uchta havo kemasini sotib olish uchun “Uzbekistan Airports” AJ tomonidan olingan “O‘zmilliybank” AJ krediti Guruhga o‘tkazildi. Kredit mablag‘lari qaytarish muddati 2024-yil noyabrgacha bo‘lgan, SOFR 6 oy. + 4.5% stavkasi bilan berilgan. Ko‘rsatilgan kreditlarni qaytarish muddati 2025-yil avgustgacha uzaytirildi. Kredit sotib olingan uchta “ATR72-600” havo kemasi bilan ta‘minlangan.

Islom taraqqiyot banki (keyingi o‘rinlarda – “ITB”)

2013-yilda Guruh 208,6 million AQSH dollari miqdorida kredit oldi. AQSH dollari (438 mlrd. UZS) “O‘zmilliybank” AJ orqali Boeing 767-300ER rusumli HKlarni sotib olish maqsadida, SVOP IBR ustamasi +1.85% yillik (Milliy bank marjasi 0.5% ni o‘z ichiga olgan holda). Kredit mablag‘lari 12 yil muddatga berildi. Kreditlar O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolati bilan ta‘minlangan.

Guruhning foiz stavkalari o‘zgarishi riski, valyuta riski va likvidlik riski to‘g‘risidagi ma‘lumotlar 27-izohda keltirilgan.

18. Ijara majburiyatlari

<i>milliard UZSda</i>	2024-yil 31 dekabr	2023-yil 31 dekabr
Uzoq muddatli qism	5,931	4,974
Qisqa muddatli qism	454	358
Jami	6,385	5,332

Guruh HKni uchinchi tomonlardan ijaraga oladi, shartnomalar valyutasi – AQSH dollari. Ijara shartnomalari o‘n ikki yil muddatga tuzilgan.

2024-yil 31-dekabr va 2023-yil holatiga ko‘ra Guruhning havo kemalari, shu jumladan ijara shartlarida ekspluatatsiya qilinadigan HK ro‘yxati 1-izohda keltirilgan.

2024-yilda Guruh ijara to‘lovlarini 10.1% (2023-yil: 10.1%) miqdorida qarz olish stavkasidan foydalangan holda diskontladi.

Guruhning ijara bo‘yicha majburiyatlari ijaraga beruvchining ijaraga olingan aktivlarga bo‘lgan huquqi bilan ta‘minlanadi.

Guruhning foiz stavkalari o‘zgarishi riski, valyuta riski va likvidlik riski to‘g‘risidagi ma‘lumotlar 27-izohda keltirilgan.

19. Moliyaviy faoliyat natijasida yuzaga kelgan majburiyatlardagi o‘zgarishlar

<i>milliard UZSda</i>	Kreditlar va qarzlari	Ijara majburiyatlari	Jami
2023-yil 1-yanvar holatiga qoldiq	8,196	3,263	11,459
Kreditlar va qarzlari tushumi / yangi ijara shartnomalari	487	2,006	2,493
Qarzning asosiy qismini to‘lash	(1,768)	(314)	(2,082)
Hisoblangan foizlar	538	245	783
Foiz to‘lovlari	(542)	(245)	(787)
Kurs farqlariga tuzatishlar	724	377	1,101
Modifikatsiya effekti	17	-	17
2023-yil 31-dekabr holatiga qoldiq	7,652	5,332	12,984
Kreditlar va qarzlari tushumi / yangi ijara shartnomalari	-	1,214	1,214
Qarzning asosiy qismini to‘lash	(1,186)	(436)	(1,622)
Hisoblangan foizlar	457	474	931
Foiz to‘lovlari	(571)	(474)	(1,045)
Kurs farqlariga tuzatishlar	287	275	562
2024-yil 31-dekabr holatiga qoldiq	6,639	6,385	13,024

20. Majburiyatlar bo‘yicha rezervlar

Majburiyatlar bo‘yicha rezervlar ijaraga olingan HKni davriy ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish uchun rezervlarni o‘z ichiga oladi.

<i>milliard UZSda</i>	2024-yil 31 dekabr	2023-yil 31 dekabr
Dvigatel	315	228
Dvigatel detallari	267	152
6-yillik tekshiruv	48	26
12-yillik tekshiruv	17	10
Qo‘nish mexanizmi	8	5
Yordamchi kuch qurilmasi	25	15
Jami	680	436

Ijaraga olingan HKning hisoblangan rezervi harakati quyida keltirilgan:

<i>milliard UZSda</i>	2024 y.	2023 y.
1-yanvarga qoldiq	436	204
yil uchun hisoblangan	340	232
Buxgalteriya bahosi o‘zgarishining ta‘siri	(113)	-
Diskont amortizatsiyasi	17	-
31-dekabrga qoldiq	680	436

Ijara shartlariga muvofiq, Guruh ekspluatatsiya davomida HKni ta‘mirlash va saqlash bo‘yicha standart tartib-qoidalarni amalga oshirishi va to‘lovlarni amalga oshirishi hamda ijara muddati oxirida HKni qoniqarli holatda ijaraga beruvchiga qaytarishi shart.

Baho o‘zgarishi

2024-yilda Guruh 5 yillik tekshiruv muddatlarini baholashni qayta ko‘rib chiqdi, chunki ilgari rejalashtirilgan texnik xizmat ko‘rsatish hisobot yilida bajarilmagan va 2025-yilda kutilmayapti. Natijada 5-yillik tekshiruvlar uchun baholash oralig‘i 7-yilga uzaytirildi. Baholashdagi o‘zgarish istiqbolda BHXS (IAS) 8 “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar”ga muvofiq qo‘llaniladi va rezerv hisob-kitobida aks ettiriladi.

20. Majburiyatlar bo'yicha zaxiralar (davomi)

Ushbu rezervlardan foydalanish quyidagicha bo'lishi kutilmoqda:

<i>milliard UZSda</i>	2024-yil 31 dekabr	2023-yil 31 dekabr
Bir yil mobaynida	20	147
Ikkinchi yil davomida	183	63
Uchinchi yildan keyin	477	226
HKga texnik xizmat ko'rsatish uchun jami rezerv	680	436

Havo kemalarini (HK) ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish zaxiralarini belgilashda muhim mulohazalar mavjud. Rahbariyat baholashi HK ning joriy texnik holati, tarixan ishlangan parvoz soatlari va sikllari, ijara muddatlarini hisobga olgan holda HK ni kelajakdagi foydalanishning kutilayotgan darajasi, shuningdek, ularni ijaraga beruvchiga qaytarish paytidagi holatiga oid shartlarni inobatga olgan holda tayyorlangan. Baholashlar quyidagi asosiy farazlarga asoslangan:

- parvoz soatlari va sikllaridan foydalanishning kutilayotgan koeffitsiyenti tarixiy ma'lumotlarga va haqiqiy foydalanishga asoslanadi;
- HK standart sharoitlarda va standart me'yorlar bo'yicha ishlatilishi nazarda tutiladi;
- rejalashtirilmagan texnik xizmat ko'rsatish uchun rezervlar yaratilmagan.

21. Savdo va boshqa kreditorlik qarzlari

<i>milliard UZSda</i>	2024 y. 31 dekabr	2023 y. 31 dekabr
Uchinchi shaxslarning savdo kreditorlik qarzi	977	536
Bog'liq tomonlarning savdo kreditorlik qarzlari	356	289
Savdo va boshqa kreditorlik qarzlari tarkibdagi jami moliyaviy majburiyatlar	1,333	825
Mehnat haqi bo'yicha qarz	191	141
Aksiyador oldidagi majburiyatlar	265	126
Boshqalar	61	44
Jami savdo va boshqa kreditorlik qarzlari	1,850	1,136

Guruhning foiz stavkalari o'zgarishi riski, valyuta riski va likvidlik riski to'g'risidagi ma'lumotlar 27-izohda keltirilgan.

22. Kechiktirilgan daromadlar

Hisobot sanasiga kechiktirilgan daromadlar tarkibida 329 mlrd. UZS da “Uzbekistan Airways Technics” MCHJ sho'ba korxonasi hududida joylashgan angarlar qurilishi uchun olingan va yo'naltirilgan homiylik mablag'lari aks ettirilgan (2023-yil 31-dekabr holatiga: angarlar qurilishi uchun 157 mlrd. UZS).

23. Xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha daromad

<i>milliard UZSda</i>	2024 y.	2023 y.
Xalqaro reyslar		
Muntazam yo'lovchi tashish	14,969	12,573
Yuk tashish	1,225	1,066
Charter yo'lovchi tashish	619	658
Ichki reyslar		
Muntazam yo'lovchi tashish	606	480
Charter yo'lovchi tashish	7	5
Yuk tashish	2	1
Yo'lovchi va yuk tashishdan tushgan daromad	17,428	14,783
Boshqa daromad	371	302
Jami daromad	17,799	15,085

23. Xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha daromad (davomi)

Bir kontragentga to‘g‘ri keladigan yuk tashishdan tushum ulushi 2024-yilda 51% ni tashkil etdi (2023-yilda: 43%).

Guruhning daromadlari UZS da ifodalangan, chunki mijozlar bilan hisob-kitoblar asosan O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiriladi.

Boshqa daromadlar asosan boshqa mahalliy kompaniyalarga yoqilg‘I sotishdan olingan daromadlardan iborat.

Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha qoldiqlar

Quyidagi jadvalda kelgusi yil davomida amalga oshirilishi kutilayotgan debitorlik qarzlari, xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

<i>milliard UZSda</i>	2024-yil 31 dekabr	2023-yil 31 dekabr
Savdo debitorlik qarzi	376	356
Xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar - olingan bo‘naklar	(1,106)	(876)
Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar - xaridorlarning sodiqlik dasturi	(196)	(90)

Joriy hisobot davrida 2023-yil 31-dekabr holatiga bo‘lgan shartnomaviy majburiyatlar bo‘yicha 662 mlrd. UZS miqdorida daromad tan olindi (2023-yilda: 2022-yil 31-dekabr holatiga bo‘lgan shartnomaviy majburiyatlar bo‘yicha 832 mlrd. USZ daromad tan olingan edi).

2024-yil 31-dekabr va 2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, MHXS (IFRS) 15 ruxsat etganidek, dastlabki kutilgan muddati bir yil yoki undan kam bo‘lgan qolgan bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlar haqidagi ma’lumotlar oshkor qilinmaydi.

24. Moliyaviy xarajatlar

<i>milliard UZSda</i>	2024 y.	2023 y.
Ijara foizlari	474	245
Kreditlar va qarzlarni bo‘yicha foizlar	457	538
Boshqa uzoq muddatli aktivlar bo‘yicha diskont	228	30
Modifikatsiya effekti	-	17
Boshqalar	19	6
Jami moliyaviy xarajatlar	1,178	836
Kapitallashtirilgan moliyaviy xarajatlar chegirib tashlangan	(67)	-
Jami moliyaviy xarajatlar	1,111	836

25. Moliyaviy daromadlar

<i>milliard UZSda</i>	2024 y.	2023 y.
Depozitlar bo‘yicha foizlar tarzidagi daromadlar	105	3
O‘zR Iqtisodiyot va moliya vazirligidan foiz ko‘rinishidagi daromadlar	87	130
Dividend ko‘rinishidagi daromadlar	14	8
Boshqalar	34	7
Jami moliyaviy daromadlar	240	148

26. Foyda solig‘i

Foyda solig‘i xarajatlarining tarkibiy qismlari

Guruh umumbelgilangan soliqlar to‘lovchisi hisoblanadi. 2024 va 2023-yillarda foyda solig‘i stavkasi 15% tashkil etdi.

<i>milliard UZSda</i>	2024 y.	2023 y.
Joriy foyda solig‘i	(231)	(15)
Kechiktirilgan soliq	(30)	(215)
Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar	(261)	(230)

Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlarni qo‘llaniladigan soliq stavkasiga ko‘paytirilgan buxgalteriya foydasi yoki zarari summasi bilan solishtirish

Quyida foyda solig‘i bo‘yicha hisoblangan va haqiqiy xarajatlarni taqqoslash keltirilgan:

<i>milliard UZSda</i>	2024 y.	2023 y.
Soliq solinguncha foyda	1,750	1,490
Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlarning hisoblab chiqilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan 15% li stavka bo‘yicha:	(263)	(224)
Boshqa soliq ta’sirlari	2	(6)
Yillik foyda solig‘i xarajatlari	(261)	(230)

Guruh kechiktirilgan soliq aktivlarini kelgusida foyda solig‘i bo‘yicha tegishli chegirmalardan foydalanish uchun yetarli bo‘lgan soliq solinadigan foyda olish ehtimoli mavjud bo‘lgan darajada tan oladi.

Vaqtinchalik farqlar turlari bo‘yicha kechiktirilgan soliqlar

2024-yil 31-dekabrda yakunlangan yil uchun vaqtinchalik farqlar harakatining soliq ta’siri quyida keltirilgan:

	31 dekabr 2023 y.	Foyda yoki zararlarda aks ettirilgan	31 dekabr 2024 y.
<i>milliard UZSda</i>			
<i>Chegirmalarning soliq samarasi/ (soliq solinadigan) vaqtinchalik farqlar</i>			
Asosiy vositalar	(23)	(149)	(172)
Foydalanish huquqidagi aktivlar	(697)	(104)	(801)
Kreditlar va qarzlar	108	(38)	70
Ijara majburiyatlari	800	158	958
Majburiyatlar bo‘yicha rezervlar	65	37	102
Boshqa aktivlar va majburiyatlar	(3)	84	81
Tan olingan soliq zararlari	18	(18)	-
Sof kechiktirilgan soliq aktivlari	268	(30)	238
Tan olingan kechiktirilgan soliq aktivi	991	220	1,211
Tan olingan kechiktirilgan soliq majburiyati	(723)	(250)	(973)
Sof kechiktirilgan soliq aktivlari	268	(30)	238

26. Foyda solig‘i (davomi)

2023-yil 31-dekabrda yakunlangan yil uchun vaqtinchalik farqlar harakatining soliq ta’siri quyida keltirilgan:

<i>milliard UZSda</i>	2023-y. 1-yanvar	Foyda yoki zararlarda aks ettirilgan	31 dekabr 2023 y.
Cegirmalarning soliq samarasi/ (soliq solinadigan) vaqtinchalik farqlar			
Asosiy vositalar	158	(181)	(23)
Foydalanish huquqi shaklidagi aktivlar	(445)	(252)	(697)
Kreditlar va qarzlari	153	(45)	108
Ijara majburiyatlari	489	311	800
Majburiyatlar bo’yicha rezervlar	32	33	65
Boshqa aktivlar va majburiyatlar	26	(29)	(3)
Tan olingan soliq zararlari	70	(52)	18
Sof kechiktirilgan soliq aktivlari	483	(215)	268
Tan olingan kechiktirilgan soliq aktivi	928	63	991
Tan olingan kechiktirilgan soliq majburiyati	(445)	(278)	(723)
Sof kechiktirilgan soliq aktivlari	483	(215)	268

27. Risklarni boshqarish

Moliyaviy risklarni boshqarish

Moliyaviy instrumentlardan foydalanish Guruhni quyidagi risk turlariga duch keltiradi:

- kredit riski;
- likvidlik riski; va
- bozor riski (valyuta riski, foiz stavkasi riski va boshqa narx risklarini o‘z ichiga oladi).

Ushbu izohda Guruhning ko‘rsatilgan har bir riskka duchor bo‘lishi, Guruhning maqsadlari, uning siyosati va ushbu risklarni baholash va boshqarish tartib-qoidalari haqida ma’lumot berilgan.

Miqdoriy xarakterdagi qo‘shimcha ma’lumotlar mazkur konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning butun matni bo’yicha ochib beriladi.

Risklarni boshqarishning asosiy tamoyillari

Guruh rahbariyati Guruhning risklarni boshqarish tizimini tashkil etish va ushbu tizimning ishlashini nazorat qilish uchun umumiy javobgar bo‘lib, Guruhning risklarni boshqarish siyosatini ishlab chiqish va uning amalga oshirilishini nazorat qilish uchun javobgardir.

Guruhning Risklarni boshqarish siyosati Guruh duch keladigan risklarni aniqlash va tahlil qilish, riskning ruxsat etilgan chegaraviy qiymatlarini va tegishli nazorat mexanizmlarini belgilash, shuningdek, risklarni kuzatish va belgilangan cheklavlarga rioya qilish maqsadida ishlab chiqilgan. Risklarni boshqarish siyosati va tizimlari bozor sharoitlari va Guruh faoliyati o‘zgarishi munosabati bilan o‘zgartirishlar kiritish zarurati nuqtai nazaridan muntazam ravishda tahlil qilinadi.

Xodimlarni o‘qitish va ishni tashkil etishning belgilangan standartlari va tartib-qoidalari yordamida Guruh barcha xodimlarning yuqori intizomi va o‘z funksiyalari hamda majburiyatlarini tushunishini nazarda tutuvchi samarali nazorat muhitini shakllantirishga intiladi.

Guruh rahbariyati Guruhning risklarni boshqarish siyosati va tartib-qoidalariga rioya etilishini qanday ta’minlashini nazorat qiladi va Guruh duch keladigan risklarga nisbatan risklarni boshqarish tizimining muvofiqligini tahlil qiladi.

27. Risklarni boshqarish (davomi)

Kredit riski

Guruhning kredit riskiga duchor bo‘lishi kontragentning qarzni to‘lash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmasligining ehtimoliy oqibati hisoblanadi. Guruhda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kredit riski mavjud bo‘lgan moliyaviy aktivlar asosan agentlarning qarzlari, bank hisobvaraqlaridagi qoldiqlar, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining debitorlik qarzlari va boshqa debitorlik qarzlari, shuningdek, texnik xizmat ko‘rsatish zaxirasiga to‘lovlar va ijaraga olingan havo kemalari va dvigatellar bo‘yicha sug‘urta depozitlari bilan ifodalanadi. Kredit riski Guruh biznesi uchun eng muhim xatarlardan biridir. Shuning uchun rahbariyat kredit riskini boshqarishga alohida e‘tibor qaratadi. Kredit riskini kamaytirish uchun Guruh ishonchli kredit tarixiga ega bo‘lgan taniqli va kreditga layoqatli tomonlar bilan bitimlar tuzadi.

Guruhning moliyaviy aktivlar turlari bo‘yicha kredit riskining cheklangan qiymatlari quyida keltirilgan:

<i>milliard UZSda</i>	Izoh	2024 y. 31 dekabr	2023 y. 31 dekabr
O‘zR Iqtisodiyot va moliya vazirligining debitorlik qarzi	10	1,843	1,986
Texnik xizmat ko‘rsatish zaxirasiga to‘lovlar va sug‘urta depozitlari	11		
ijaraga olingan HK va dvigatellar bo‘yicha		872	528
Qisqa muddatli bank depozitlari	15	158	1,254
Savdo va boshqa debitorlik qarzlari	13	544	528
Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	14	820	320
Uzoq muddatli bank depozitlari	11	-	132
Jami:		4,237	4,748

Guruhning 2024-yil 31-dekabr va 2023-yildagi bank hisobvaraqlari va qisqa muddatli depozitlaridagi pul mablag‘larining asosiy qismi “O‘zmilliybank” AJga joylashtirildi. Bankning davlat nazorati va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yuqori ehtimolini hisobga olgan holda, kredit riski past deb baholandi va tegishli moliyaviy instrumentlar kutilayotgan kredit yo‘qotishlari modeli doirasida 1-bosqichga (1-bosqich) klassifikatsiya qilinadi (14 va 15-izohlarga qarang). 12 oydan kam bo‘lgan savdo debitorlik qarzi muddati davomida Guruh kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini o‘z vaqtida qoplash uchun tegishli zaxiralarni yaratish orqali aks ettiradi. Kutilayotgan kredit zararlari darajasini hisoblashda Guruh aktivlarning qisqa muddatligini hisobga olgan holda mijozlarning har bir toifasi bo‘yicha o‘tgan davrlarda yuzaga kelgan zararlar darajasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ko‘rib chiqadi, prognoz qilinayotgan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar zararlar darajasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmaydi. Iqtisodiyotda salbiy hodisalar yuzaga kelgan taqdirda, ko‘rsatkichlar tuzatilishi mumkin.

Kutilayotgan kredit zararlarini baholash

Guruh kutilayotgan kredit zararlarini (keyinchalik matnda “KKZ” deb yuritiladi) baholashda 9-son MHXS (IFRS) da nazarda tutilgan soddalashtirilgan yondashuvni qo‘llaydi, bunda savdo debitorlik qarzlari uchun butun davr uchun KKZ bo‘yicha baholash zaxirasidan foydalaniladi.

KKZni baholash uchun savdo va boshqa debitorlik qarzlari kredit riskining umumiy xususiyatlari va to‘lov muddati o‘tkazib yuborilgan kunlar soni asosida guruhlariga ajratildi. Defolt ehtimolini aniqlash uchun Guruh defoltni quyidagi mezonlardan biri yoki bir nechtasiga mos keladigan xavfga moyillik holati sifatida ta‘riflaydi:

- shartnomada nazarda tutilgan to‘lovlarning debitor tomonidan kechiktirilishi 90 kundan oshsa;
- xalqaro reyting agentliklari qarz oluvchini defolt reytinglari toyifaga kiritadi;
- debitor quyida ko‘rsatilgan ehtimoliy to‘lovga qobiliyatsizlik mezonlariga mos keladi:
 - mijozning to‘lovga layoqatsizligi;
 - mijozning kasod bo‘lish ehtimoli paydo bo‘lishi.

27. Risklarni boshqarish (davomi)

Dastlabki tan olish paytidan boshlab kredit riskining sezilarli darajada oshganligi yoki oshmaganligini baholash individual asosda amalga oshiriladi. Guruh rahbariyati kredit riskining sezilarli darajada oshganligi faktini aniqlash uchun foydalaniladigan mezonlarni ularning tegishli xususiyati nuqtai nazaridan davriy monitoring va tekshirishni amalga oshiradi. Dastlabki tan olish paytidan boshlab, agar moliyaviy aktivlar 30 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan bo‘lsa, kredit riskining sezilarli darajada oshishi haqidagi taxmin rad etilmaydi.

Guruh quyidagi miqdoriy, sifat yoki cheklovchi mezonlardan biri yoki bir nechitasi bajarilganda, moliyaviy instrument bo‘yicha kredit riskining sezilarli darajada oshishi sodir bo‘lgan deb hisoblaydi. Savdo va boshqa debitorlik qarzlari uchun:

- to‘lovni 30 kunga kechiktirish; va
- nisbiy chegaraviy qiymat: Guruh kredit xavfi yuqori bo‘lgan debitorlarni muntazam ravishda kuzatib boradi va makroiqtisodiy, tarmoq va boshqa muhim omillarni baholashga qarab, bunday kontragentlarda kredit xavfining sezilarli darajada oshishi mavjudligini aniqlaydi.

Quyidagi jadvalda 2024-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra kutilayotgan kredit zararlari (KKZ) uchun zaxira chegirilmasidan oldingi savdo va boshqa debitorlik qarzlari sifati haqidagi ma’lumotlar keltirilgan:

	Yalpi balans qiymati	Qadrsizlanish bo‘yicha baholash zaxirasi	Kredit- qadrsizlangan
<i>milliard UZSda</i>			
Muddati o‘tmagan	2,202	-	Yo‘q
31-90 kun kechiktirilgan	52	(1)	Yo‘q
91-180 gacha muddati o‘tgan	19	(1)	Ha
181-270 kun kechiktirilgan	34	(1)	Ha
Muddati 360 kundan oshgan	166	(83)	Ha
Jami	2,473	(86)	

Quyidagi jadvalda 2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, KKZ uchun zaxira chegirilgunga qadar bo‘lgan savdo va boshqa debitorlik qarzlarning sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

	Yalpi balans qiymati	Qadrsizlanish bo‘yicha baholash zaxirasi	Kredit- qadrsizlangan
<i>milliard UZSd</i>			
Muddati o‘tmagan	1,281	-	Yo‘q
31-90 kun kechiktirilgan	43	-	Yo‘q
91-180 gacha muddati o‘tgan	25	(2)	Ha
181-270 kun kechiktirilgan	15	(1)	Ha
Muddati 360 kundan oshgan	159	(6)	Ha
Jami	2,523	(9)	

Barcha qarzlari 1-bosqichga (Stage 1) tasniflangan, 2-bosqichga (Stage 2) kiritilgan kredit riskining oshishi belgilari bo‘lgan alohida summalar bundan mustasno.

Valyuta riski

Guruh daromad, shuningdek xaridlar va qarz mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha operatsiyalarga nisbatan valyuta riski ta’siriga duchor bo‘ladi, ular UZSdan boshqa valyutada ifodalanadi. Valyuta riski asosan AQSH dollari, Yevro va Rossiya rublidagi operatsiyalar bo‘yicha yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorida valyuta risklarini boshqarish vositalari rivojlanmaganligi sababli, Guruh valyuta risklarini sug‘urtalashni amalga oshirmaydi.

“UZBEKISTAN AIRWAYS” AJ VA UNING SHO‘BA KORXONALARI
2024-yil 31-dekabr - konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga izohlar

27. Risklarni boshqarish (davomi)

Quyida 2024-yil 31-dekabr va 2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, muhim valyuta riski mavjud bo‘lgan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari keltirilgan:

	Pullik moliyaviy aktivlar				Pullik moliyaviy majburiyatlar			Sof valyuta pozitsiyasi
	O‘zR Iqtisodiyot va moliya vazirligining debitorlik qarzi	Boshqa aylanmadan tashqari aktivlar	Qisqa muddatli bank depozitlari	Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	Kreditlar va qarzlar	Kreditorlik qarzi	Ijara majburiyatlari	
<i>milliard UZSda</i>								
2024-yil, 31-dekabr								
- AQSH dollari	1,432	872	138	570	(5,813)	(490)	(6,385)	(9,676)
- Yevro	411	-	-	25	(354)	(26)	-	56
- Rossiya rubli	-	-	-	24	-	-	-	24
Jami	1,843	872	138	619	(6,167)	(516)	(6,385)	(9,596)
2023-yil, 31-dekabr								
- AQSH dollari	1,588	660	1,234	123	(6,767)	(333)	(5,332)	(8,827)
- Yevro	398	-	-	28	(398)	(14)	-	14
- Rossiya rubli	-	-	-	25	-	-	-	25
Jami	1,986	660	1,234	176	(7,165)	(347)	(5,332)	(8,788)

27. Risklarni boshqarish (davomi)

Quyidagi jadvalda foydaga solinadigan soliqni hisobga olgandan keyingi foyda yoki zarar va kapitalning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tuzish sanasida qo‘llanilgan valyuta kursining oqilona mumkin bo‘lgan o‘zgarishlariga ta’sirchanligi ifodalangan, bunda qolgan barcha o‘zgaruvchilar o‘zgarishsiz qolishi shart:

<i>milliard UZSda</i>	2024 y. 31 dekabr	2023 y. 31 dekabr
AQSH dollari (10% ga kuchaytirish)	(822)	(750)
AQSH dollari (10% ga zaiflashish)	822	750
YEVRO (10% ga kuchaytirish)	5	1
YEVRO (10% ga zaiflashish)	5	(1)
Rossiya rubli (10% ga mustahkamlangan)	2	2
Rossiya rubli (10% ga zaiflashdi)	2	(2)

Likvidlik riski

Likvidlik riski moliyaviy majburiyatlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelish tavakkalchiligi sifatida belgilanadi. Guruh to‘lovlar bo‘yicha barcha majburiyatlarni belgilangan muddatlarda bajarish uchun istalgan vaqtda zarur mablag‘larning mavjudligini ta’minlash maqsadida likvidlik darajasini boshqarishni amalga oshiradi. Guruh likvidlik bilan bog‘liq muammolarning oldini olish uchun operatsion foydaning to‘lanadigan foizlarga nisbati va boshqa likvidlik koeffitsiyentlari monitoringini amalga oshiradi.

Rahbariyat maqsadli ko‘rsatkichlar asosli va yaqin kelajakda erishish mumkin deb hisoblaydi. Guruh rahbariyati zarur hollarda Guruh qo‘shimcha moliyalashtirish manbalariga kirish imkoniyatiga ega deb hisoblaydi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi davlat ehtiyojlari uchun havo kemalari va aviatsiya dvigatellarini sotib olish uchun olingan kreditlar va qarzlarni to‘lash uchun mablag‘ ajratadi. Bunday moliyalashtirish kreditlar va qarzarlar bo‘yicha to‘lovlar paytida amalga oshiriladi.

Quyidagi jadvalda shartnomaviy diskontlanmagan to‘lovlar, shu jumladan foizlar asosida so‘ndirish muddatlari bo‘yicha moliyaviy instrumentlar tahlili keltirilgan:

	Talab qilinguncha va 1 oy dan kam	1 dan 6 oygacha	6 dan boshlab 12 oygacha	1 yildan ortiq	Jami	Balans qiymati
<i>milliard UZSda</i>						
2024-yil 31-dekabr						
O‘zgaruvchan foiz stavkali kreditlar va qarzarlar	-	117	74	989	1,180	1,030
Qat’iy stavka bo‘yicha kreditlar va qarzarlar	124	707	814	3,899	5,544	4,824
Foizsiz kreditlar va qarzarlar	-	55	55	795	905	785
Ijara	44	371	445	7,567	8,427	6,385
Kreditorlik qarzi	1,333	-	-	-	1,333	1,333
Moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha kelgusida to‘lanishi mumkin bo‘lgan jami summa	1,501	1,250	1,388	13,250	17,389	14,357
2023-yil 31-dekabr						
O‘zgaruvchan foiz stavkali kreditlar va qarzarlar	-	329	194	1,021	1,544	1,304
Belgilangan stavka bo‘yicha kreditlar va qarzarlar	-	612	582	5,328	6,522	5,494
Foizsiz kreditlar va qarzarlar	-	54	54	892	1,000	854
Ijara	63	313	376	6,969	7,721	5,332
Kreditorlik qarzi	825	-	-	-	825	825
Moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha kelgusida to‘lanishi mumkin bo‘lgan jami summa	888	1,308	1,206	14,210	17,612	13,809

27. Risklarni boshqarish (davomi)

Foiz riski

Guruh bozor foiz stavkalari o‘zgarishining uning moliyaviy natijalari va pul oqimlariga ta’siri bilan bog‘liq xatarga duchor bo‘ladi. Foiz stavkalarining o‘zgarishi asosan kredit va qarzlarni jalb qilish qiymatiga (qat’iy belgilangan foiz stavkasi) hamda kelajakdagi pul oqimlariga (kredit va qarzlarning suzuvchi foiz stavkasi) ta’sir ko‘rsatadi.

Yangi kreditlar va qarzlarni jalb qilish, shuningdek ijara shartnomasini tuzish paytida, rahbariyat to‘lov muddatigacha bo‘lgan butun davr mobaynida Guruh uchun qaysi foiz stavkasi (qat’iy yoki suzuvchi) manfaatliroq bo‘lishini taxmin qilgan holda qaror qabul qiladi.

Qat’iy foiz stavkali moliyaviy instrumentlarning haqqoniy qiymati sezuvchanligini tahlil qilish

Guruh o‘zgarishi foyda yoki zarar tarkibida yoki boshqa jami daromadda aks etadigan haqqoniy qiymatda baholanadigan instrumentlar uchun nazarda tutilgan tartibda qat’iy belgilangan foiz stavkasidagi har qanday moliyaviy instrumentlarni hisobga olmaydi. Shu sababli, hisobot sanasida foiz stavkalarining har qanday o‘zgarishi davr uchun foyda yoki zarar miqdoriga yoki kapital miqdoriga ta’sir qilmaydi.

O‘zgaruvchan foiz stavkali moliyaviy instrumentlar bo‘yicha pul oqimlarining sezgirlikini tahlil qilish

2024-yil 31-dekabr holatiga foiz stavkalari 100 bazis punktga past bo‘lganda (2023-yilda: 100 bazis punktga past), boshqa o‘zgaruvchilar o‘zgarishsiz qolgan holda, yillik foyda 11 mlrd. UZS ga (2023-yilda: 11 mlrd. UZS ga) ko‘proq bo‘lar edi. Bu asosan o‘zgaruvchan foizli kreditlar bo‘yicha past foiz xarajatlari natijasida yuz berar edi.

Agar foiz stavkalari 100 bazis punktga yuqori bo‘lganida (2023-yilda: 100 bazis punktga yuqori), boshqa o‘zgaruvchilar o‘zgarishsiz qolgan holda, o‘zgaruvchan foizli kreditlar bo‘yicha yuqori foiz xarajatlari natijasida yillik foyda 11 mlrd. UZS ga (2023-yilda: 11 mlrd. UZS ga) kamroq bo‘lar edi.

28. Shartli majburiyatlar

Shartli soliq majburiyatlari

O‘zbekiston soliq tizimi rivojlanishda davom etmoqda va qonunchilik normalari, rasmiy tushuntirishlar va sud qarorlarining tez-tez o‘zgarishi bilan tavsiflanadi, bu esa turli soliq organlari tomonidan turlicha talqin qilinishiga imkon beradi.

Soliqlarning to‘g‘ri hisoblanishini tekshirish va tergov qilish bilan yirik jarimalar solish, penyalari hisoblash va foizlar undirish huquqiga ega bo‘lgan turli darajadagi bir necha tartibga soluvchi organlar shug‘ullanadi. Hisobot davrida soliqlarni hisoblab chiqarishning to‘g‘riligi keyingi uch kalendar yil mobaynida tekshirilishi mumkin.

Ushbu holatlarning barchasi O‘zbekistonda soliq risklari boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Guruh rahbariyati amaldagi O‘zbekiston soliq qonunchiligi, rasmiy tushuntirishlar va sud qarorlari to‘g‘risidagi o‘z tushunchalariga asoslanib, soliq majburiyatlari to‘liq aks ettirilgan deb hisoblaydi. Shunga qaramay, ushbu qoidalarining soliq organlari va sudlar tomonidan talqin qilinishi, ayniqsa soliq nizolarini hal qiluvchi oliy sudlarning isloh qilinishi natijasida, boshqacha bo‘lishi mumkin va agar soliq organlari o‘z pozitsiyalarining to‘g‘riligini isbotlay olsalar, bu ushbu konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Kafolatlar

2024-yil 31-dekabr va 2023-yil holatiga ko‘ra, Guruh tomonidan kafolatlar berilmagan.

Sug‘urta

Guruh O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq sug‘urtaning majburiy turlarini ham, sug‘urtaning ixtiyoriy turlarini, shu jumladan fuqarolik javobgarligi xavfini, HKning yo‘qolishi va shikastlanishi xavfini ham sug‘urtalashni ta’minlaydi.

28. Shartli majburiyatlar (davomi)

Aviatsiya sug‘urtasi

Guruh aviatsiya xavflarini sug‘urtalashning xalqaro standartlari bo‘yicha xatarlarni xalqaro tan olingan va moliyaviy-ishonchli sug‘urta va qayta sug‘urta kompaniyalariga joylashtiradi. Sug‘urta qoplamalarining turlari quyida keltirilgan:

- HK, dvigatellar, ehtiyot qismlar va asbob-uskunalar mulkiy zararining “Barcha xavf-xatarlar” aviatsiya sug‘urtasi; tashuvchining uchinchi shaxslar va yo‘lovchilar oldidagi, ularning bagaji va qo‘l yuki, yuk va pochta-siga nisbatan fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug‘urta qilish;
- HK, shu jumladan ehtiyot qismlar va asbob-uskunalarini harbiy va urush bilan bog‘liq risklardan hamda aviatsiya harbiy risklari, qo‘lga olish va boshqa xavflardan qo‘shimcha (ekssedent) javobgarlikdan sug‘urta qilish;
- HK korpusi franshizasini, shu jumladan zaxira dvigatellarini sug‘urtalash.

Guruh o‘zining ishlab chiqarish inshootlariga, ishlab chiqarishning to‘xtab qolishi natijasida yetkazilgan zararlarga yoki avariylar yoki Guruh faoliyati natijasida ko‘chmas mulk obyektlariga yoki atrof-muhitga yetkazilgan zarar tufayli uchinchi shaxslar oldida yuzaga kelgan majburiyatlarga nisbatan to‘liq sug‘urta himoyasiga ega emas. Rahbariyatning fikriga ko‘ra, muayyan aktivlarning yo‘qolishi yoki shikastlanishi Guruh faoliyati va moliyaviy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi xavfi ahamiyatsiz.

Sud jarayonlari

Hisobot davrida Guruh odatdagi moliya-xo‘jalik faoliyati davomida yuzaga kelgan bir nechta sud jarayonlarida (ham da‘vogar, ham javobgar sifatida) ishtirok etdi. Rahbariyatning fikriga ko‘ra, hozirda Guruh faoliyati natijalari yoki moliyaviy holatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hech qanday sud jarayonlari yoki da‘volar mavjud emas.

Kapital xarakterdagi majburiyatlar

2024-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, Guruh Airbus S.A.S. oldida 2029-2030-yillarda yetkazib berish muddati taxminan 826 mln. AQSH dollariga (10,668 mlrd. UZS) (31-dekabr 2023-yil uchun: 8,567 mlrd. UZS) teng bo‘lgan 14 ta yangi A321 NEO rusumli havo kemalarini sotib olish bo‘yicha shartnoma majburiyatlariga ega.

Bundan tashqari, Guruh CFM International S.A. oldida ko‘rsatilgan HK uchun ikkita zaxira aviatsiya dvigatelinini yetkazib berish bo‘yicha 22.6 mln. AQSH dollari (292 mlrd. UZS) (2023-yil 31-dekabr: 421 mlrd. UZS) miqdoridagi shartnoma majburiyatlariga ega.

Shuningdek, Guruhning aeroportlar qurilishi bo‘yicha pudratchi tashkilotlar oldida umumiy qiymati 1,720 milliard UZS kapital majburiyatlari mavjud (2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra: bunday majburiyatlar mavjud emas). 136 mlrd. UZS O‘zR Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan qoplanadi.

Ijara shartnomalari doirasida to‘liq olinmagan HK bo‘yicha majburiyatlar

2024-yil davomida Guruh ikkita uzoq muddatli HK ijarasi shartnomasini tuzdi. 2024-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, HK yetkazib berish hali amalga oshirilmagan (2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra: bunday majburiyatlar mavjud emas).

Ko‘rsatilgan shartnomalar bo‘yicha bo‘lajak ijara majburiyatlarining umumiy hajmi 141 mln. AQSH dollarni (1 820 mlrd. UZS) tashkil etdi. Ushbu summalar ijara bo‘yicha majburiyatlar sifatida tan olinmaydi, chunki ijara muddati hisobot sanasida boshlanmagan.

29. Moliyaviy instrumentlarning haqqoniy qiymati

Guruh hisob siyosatining muayyan qoidalari va bir qator oshkor qilishlar moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar va majburiyatlarning haqqoniy qiymatini baholashni talab qiladi.

Aktiv yoki majburiyatning haqqoniy qiymatini baholashda, Guruh iloji boricha kuzatilayotgan bozor ma'lumotlaridan foydalanadi. Haqqoniy qiymat baholari tegishli baholash usullari doirasida foydalaniladigan dastlabki ma'lumotlarga qarab haqqoniy qiymat iyerarxiyasining turli darajalariga tegishli bo'ladi:

- 1-daraja: faol bozorlarda bir xil aktivlar va majburiyatlarning kotirovka qilingan (tuzatilmagan) narxlari.
- 2-daraja: bevosita (masalan, narxlar) yoki bilvosita (ya'ni narxlar asosida aniqlangan) kuzatiladigan 1-daraja narxlari uchun qo'llaniladigan kotirovka qilingan narxlardan tashqari boshlang'ich ma'lumotlar.
- 3-daraja: kuzatiladigan bozor ma'lumotlariga asoslanmagan aktivlar va majburiyatlar uchun dastlabki ma'lumotlar (kuzatilmaydigan dastlabki ma'lumotlar).

Agar aktiv yoki majburiyatning haqqoniy qiymatini baholash uchun foydalaniladigan boshlang'ich ma'lumotlar haqqoniy qiymat iyerarxiyasining turli darajalariga tegishli bo'lishi mumkin bo'lsa, umuman olganda haqqoniy qiymatni baholash iyerarxiyaning butun baholash uchun muhim bo'lgan eng quyi darajadagi boshlang'ich ma'lumotlar mos keladigan darajasiga tegishli bo'ladi. Guruh ushbu o'zgarish sodir bo'lgan hisobot davrining oxirgi sanasida haqqoniy qiymat iyerarxiyasi darajalari o'rtasidagi o'tkazmalarni tan oladi.

Guruh rahbariyati Guruh moliyaviy aktivlari va majburiyatlarining haqqoniy qiymati ularning balans qiymatiga yaqin deb hisoblaydi, kreditlar va qarzarlar bundan mustasno. Baholash va oshkor qilish maqsadlari uchun adolatli qiymat quyidagi usullar asosida aniqlandi:

Savdo va boshqa debitorlik va kreditorlik qarzlari

Savdo va boshqa debitorlik va kreditorlik qarzlari – to'lash muddati 1 yildan kam bo'lgan debitorlik va kreditorlik qarzlari uchun haqqoniy qiymat ularning balans qiymatidan sezilarli darajada farq qilmaydi, chunki pulning vaqt qiymatining ta'siri kam.

Kreditlar va qarzarlar

2024-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Guruh qat'iy va o'zgaruvchan foiz stavkalariga ega bo'lgan instrumentlarga egalik qilgan. Guruh rahbariyati har bir hisobot sanasidagi kreditlarning haqqoniy qiymatini bozorda berilgan o'xshash kreditlar va qarzlarni taqqoslash orqali tahlil qiladi. Tahlillar natijasida, 2024-yil 31-dekabr va 2023-yil holatiga moliyaviy instrumentlar bo'yicha foiz stavkalari bozor stavkalaridan sezilarli darajada farq qilmadi. Rahbariyatning fikricha, 2024-yil 31-dekabr holatiga qat'iy belgilangan foiz stavkali moliyaviy instrumentlar va foizsiz moliyaviy instrumentlarning haqqoniy qiymati 5,166 mlrd. UZS (2023 yil 31 dekabr holatiga: 5,762 mlrd. UZS). Baholangan haqqoniy qiymat xuddi shunday kredit riski va so'ndirish muddatiga ega bo'lgan yangi instrumentlar bo'yicha joriy foiz stavkalarini qo'llagan holda pul oqimlarini diskontlashga asoslanadi. Kreditlar va qarzlarning haqqoniy qiymati haqqoniy qiymat iyerarxiyasining 3-darajasiga kiritilgan.

Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarining haqqoniy qiymati rahbariyat tomonidan haqqoniy qiymat iyerarxiyasining 2-darajasiga, boshqa barcha moliyaviy aktivlar va majburiyatlar esa haqqoniy qiymat iyerarxiyasining 3-darajasiga kiritilgan.

30. Hisobot davri tugaganidan keyingi hodisalar

Aviadvigatellarni xarid qilish

2025-yilda Guruh Hartford Aviation Group, Inc. yetkazib beruvchisi bilan ikkita PW-4000 samolyot dvigatelinini sotib olish bo'yicha ikkita shartnoma tuzdi. Ularning umumiy qiymati 19.2 mln. AQSH dollari (248 mlrd. UZS) ni tashkil etdi. 2025-yil iyun oyida mazkur xaridni moliyalashtirish maqsadida Guruh KDB Uzbekistan banki bilan 19.2 mln. AQSH dollari miqdorida uzoq muddatli kredit shartnomasini imzoladi.

30. Hisobot davri tugaganidan keyingi hodisalar (davomi)

HKni yetkazib berish

2025-yil aprel oyida “Omnipol A.S.” yetkazib beruvchisidan L-410 rusumli HK yetkazib berildi.

Kredit summalarini tanlab olish

Kommercn banki, A.S. bilan imzolangan kredit shartnomasi doirasida 11.5 mln. Yevro (155 mlrd. UZS) miqdoridagi mablag‘ tanlandi. Tuzilgan kredit shartnomasi asosida ikkita L-410 rusumli HK garov predmeti sifatida rasmiylashtirildi.

“Toshkent-Sharqiy” aeroporti qurilishini moliyalashtirish doirasida “O‘zbekiston Milliy banki” AJ bilan uzoq muddatli kredit shartnomasi tuzildi, uning doirasida 905 mlrd. UZS miqdorida mablag‘ ajratildi.

Deutsche Bank bilan mandat kelishuvi

Deutsche Bank bilan Toshkent-Sharqiy aeroportini qurish loyihasini 80 million yevrogacha moliyalashtirish bo‘yicha mandat shartnomasi imzolandi.

Aeroportlarni topshirish

2025-yil aprel oyida Zomin va Qo‘qon hududlarida qurilgan, umumiy qiymati mos ravishda 85 mlrd. va 40 mlrd. UZS bo‘lgan ikkita aeroportni aksiyador – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining ustav kapitalini kamaytirish orqali bog‘liq tomonga topshirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Boeing 767 havo kemalarini ishga tushirish (ekspluatasiya)

2025-yil may oyida texnik tayyorgarlikdan so‘ng Boeing 767 havo kemasi foydalanishga topshirildi.

Aksiyalar paketini topshirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-avgustdagi 303-sonli qaroriga binoan, 2025-yil may oyida Kompaniyaning 25% lik aksiyalar paketi O‘zbekiston Respublikasi Milliy investitsiya jamg‘armasiga topshirildi.